



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъмоиллар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna Nozima	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag‘batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O‘zbekistonda mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
41.	Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
42.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
43.	Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323





44.	Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog'ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	332
45.	Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
46.	Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishni takomillashtirish	350
47.	Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o'g'li	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
48.	Zokirov Sardor To'liqin o'g'li	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o'rni	362
49.	Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368
50.	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374





HUDUDLAR INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

*Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlari tadqiq etilgan. Hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy va ijtimoiy omillar tizimlashtirilgan. Mavjud baholash usullarining imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, hududlar o‘rtasidagi investitsion tafovutlarni aniqlashda kompleks baholash yondashuvining afzalliklari asoslangan. Tadqiqot natijasida investitsion muhitni baholashda ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda shakllantirish, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va baholash natijalaridan hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishda foydalanish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Mazkur metodologik yondashuv investitsion resurslarni hududlar kesimida samarali taqsimlash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash hamda hududlarning investitsion raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: hudud, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, baholash, metodologiya, investitsiya, infratuzilma, institutsional muhit, investitsion salohiyat, raqobatbardoshlik.

СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ РЕГИОНОВ

Умаралиев Санжар Султоналиевич

*Независимый соискатель
Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. В статье исследуются современные методологические подходы к оценке привлекательности инвестиционной среды регионов. Систематизированы экономические, институциональные, инфраструктурные, финансовые и социальные факторы, определяющие инвестиционную привлекательность регионов. Проанализированы возможности и ограничения существующих методов оценки, обоснованы преимущества комплексного подхода при выявлении межрегиональных различий в инвестиционной привлекательности. Предложены направления совершенствования оценки инвестиционной среды с учетом специфики регионов и результатов комплексного анализа. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования предложенного подхода для совершенствования региональной инвестиционной политики, эффективного распределения инвестиционных ресурсов, определения приоритетных направлений и повышения инвестиционной конкурентоспособности регионов.

Ключевые слова: регион, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, оценка, методология, инвестиции, инфраструктура, институциональная среда, инвестиционный потенциал, конкурентоспособность.

MODERN METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN REGIONS

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

*Independent Researcher at
Tashkent State*





University of Economics

Annotation. *This article examines modern methodological approaches to assessing the attractiveness of the investment environment in regions. The economic, institutional, infrastructural, financial and social factors determining regional investment attractiveness are systematized. The possibilities and limitations of existing assessment methods are analyzed, and the advantages of a comprehensive approach to identifying interregional differences in investment attractiveness are substantiated. The study proposes directions for improving the assessment of the investment environment by taking into account regional characteristics and the results of comprehensive analysis. The practical significance of the research lies in the possibility of applying the proposed approach to improve regional investment policy, ensure the efficient allocation of investment resources, identify priority areas, and enhance the investment competitiveness of regions.*

Keywords: *region, investment environment, investment attractiveness, assessment, methodology, investment, infrastructure, institutional environment, investment potential, competitiveness.*

Kirish.

Bugungi sharoitda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligini ta'minlash, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi esa investitsion muhitni shakllantiruvchi omillarni chuqur o'rganish va ularni aniq mezonlar asosida baholashni talab etadi. Shu jihatdan hududlarning investitsion muhit jozibadorligini xolis va tizimli baholash investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hududning investitsion jozibadorligi iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat bozori, bozor sig'imi, institutsional muhit va tadbirkorlik faoliyati kabi ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarning hududlar kesimida ta'sir darajasi bir xil bo'lmaganligi sababli investitsion jozibadorlikni faqat bitta yoki bir nechta ko'rsatkich orqali baholash mavjud holatni to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli kompleks va ko'p mezonli baholash yondashuvlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Mazkur maqolada hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning mavjud yondashuvlari umumlashtirilib, baholash mezonlari tizimlashtiriladi hamda iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirishga asoslangan zamonaviy metodologik yondashuvning mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, kompleks baholash natijalaridan hududiy investitsiya siyosatini differensiallashtirish va investitsion resurslarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyatlari asoslanadi.

Tahlil va natijalar.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki investitsiya jarayonlarining hajmi va dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy faollik, kapital shakllanishi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda investorlar uchun yaratilgan iqtisodiy sharoitlarni kompleks ifodalaydi. Ayniqsa, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini belgilovchi muhim indikator hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, 2018–2025-yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, ularning o'sish indeksi hamda YaIMdagi ulushi dinamikasini tahlil qilish investitsion muhitning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarishi mamlakat miqyosida investitsion faollikning shakllanishi va uning iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini baholash uchun muhim statistik baza yaratadi.




1-jadval
O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit jozibadorligini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2018–2025-yillardagi dinamikasi⁵⁰

Yil	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m	Investitsiyalar o‘sish/narx indeksi, %	Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, %
2018	124 231,3	133,8	26,2
2019	195 927,3	114,4	32,9
2020	210 195,1	111,9	31,5
2021	239 552,6	110,6	29,2
2022	266 240,0	111,8	26,7
2023	356 071,4	108,0	29,6
2024	507 490,2	107,6	34,9
2025	603 558,8	105,2	—

Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasida 2018–2025-yillarda investitsion faollikning umumiy hajmi sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Xususan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2018-yildagi 124 231,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 603 558,8 mlrd so‘mgacha oshib, qariyb 4,9 baravar ko‘paygan. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2018-yildagi 26,2 foizdan 2019-yilda 32,9 foizga, 2024-yilda esa 34,9 foizga yetgan. Bu holat iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalarining roli kuchayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar o‘sish/narx indeksining 133,8 foizdan 105,2 foizgacha pasayishi keyingi yillarda investitsiya hajmi yuqori sur’atlarda o‘sishda davom etgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’atlarining nisbatan barqarorlashganini ko‘rsatadi. Umuman, mazkur tendensiyalar O‘zbekistonda investitsion muhitning institutsional va iqtisodiy jihatdan takomillashib borayotganini hamda hududlar kesimida investitsion jozibadorlikni oshirish uchun yetarlicha iqtisodiy baza shakllanganini ko‘rsatadi.

Hududlarning investitsion muhit jozibadorligini baholashda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari va xususiy sektor ishtirokining darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar hudud iqtisodiyotining investitsiyalarni o‘zlashtirish salohiyati, moliyaviy barqarorligi hamda investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning amaliy natijalarini ifodalaydi. Xususan, kichik biznes investitsiyalari hududlarda tadbirkorlik faolligi va xususiy kapitalning rivojlanish darajasini tavsiflaydi. Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar nisbati esa investitsiya jarayonlarida davlat va nodavlat moliyalashtirish manbalarining o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat ulushining o‘zgarishi iqtisodiyotda davlat ishtirokining investitsiya jarayonlariga ta’sirini baholash uchun muhim indikator hisoblanadi. Aholi mablag‘larining investitsiyalardagi ishtiroki esa ichki jamg‘armalarni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish darajasini aks ettiradi..

2-jadval
O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit jozibadorligini baholash ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2018–2025-yillar⁵¹

Yil	Kichik biznes investitsiyalari, mlrd so‘m	Markazlashgan investitsiyalar, mlrd so‘m	Markazlashmagan investitsiyalar, mlrd so‘m	Davlat ulushi, %	Aholi mablag‘lari, mlrd so‘m
2018	47 225,2	36 929,8	87 301,4	18,6	14 188,8
2019	86 886,8	53 923,8	142 003,5	21,7	15 715,3
2020	96 629,2	42 003,5	168 191,7	16,9	18 873,2
2021	109 202,2	46 100,4	193 452,2	17,5	22 705,1
2022	127 640,6	41 784,3	224 455,7	14,2	27 296,2
2023	176 630,5	49 898,7	306 172,7	12,1	29 982,5
2024	265 685,8	52 206,7	455 283,4	10,4	32 706,5
2025	362 910,0	62 860,1	540 698,8	10,3	37 944,5

⁵⁰ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁵¹ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





2-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda 2018–2025-yillarda investitsion muhitning tarkibiy jihatdan sezilarli o'zgarib, xususiy va markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining ahamiyati ortganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda kichik biznes investitsiyalari 47 225,2 mlrd so'mdan 362 910,0 mlrd so'mgacha, ya'ni qariyb 7,7 baravar oshgan. Mazkur o'sish hududlarda tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligi kuchayganidan dalolat beradi. Markazlashmagan investitsiyalar hajmi esa 87 301,4 mlrd so'mdan 540 698,8 mlrd so'mgacha yetib, qariyb 6,2 baravar ko'paygan. Bu holat investitsiya jarayonlarida davlat mablag'lariga nisbatan xususiy va boshqa muqobil moliyalashtirish manbalarining roli kuchayayotganini anglatadi. Markazlashgan investitsiyalar 2018-yilda 36 929,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 62 860,1 mlrd so'mga yetgan. Davlat ulushi 2019-yilda 21,7 foizgacha oshganidan so'ng izchil pasayib, 2025-yilda 10,3 foizni tashkil qilgan. Aholi mablag'lari esa 14 188,8 mlrd so'mdan 37 944,5 mlrd so'mgacha ko'paygan. Umuman, mazkur tendensiyalar investitsion muhitning diversifikatsiyalanayotganini va hududlarda xususiy kapitalni jalb etish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, 2018–2025-yillardagi mazkur ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish O'zbekistonda investitsion muhitning tarkibiy o'zgarishlarini aniqlash va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2025-yillarda kichik biznes investitsiyalari 47 225,2 mlrd so'mdan 362 910,0 mlrd so'mgacha oshgan. Markazlashmagan investitsiyalar hajmining ham keskin ko'payishi xususiy sektor faolligi kuchayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat ulushining 18,6 foizdan 10,3 foizgacha kamayishi investitsiya jarayonlarida nodavlat manbalar ahamiyati ortganini anglatadi.

Xulosa.

Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari mazkur jarayonni alohida iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklab qo'yish hududlarning real investitsion imkoniyatlarini to'liq ifodalamasligini ko'rsatdi. Hududning investitsion jozibadorligi uning iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda infratuzilmaviy ta'minlanganligi, institutsional muhit sifati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat resurslari, bozor sig'imi, tadbirkorlik faolligi va innovatsion rivojlanish darajasining o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi.

Shu sababli hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashda kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda ko'rsatkichlarni mazmunan bir xil guruhlariga ajratish, ularning hududiy sharoitdagi ahamiyatini aniqlash va umumlashtirilgan baholash natijasini shakllantirish investitsion muhitning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, iqtisodiy, infratuzilmaviy, institutsional, moliyaviy va ijtimoiy mezonlarning birgalikda qo'llanilishi hududlar o'rtasidagi investitsion tafovutlarni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy metodologik yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, uning asosida hududlarni investitsion jozibadorlik darajasiga ko'ra guruhlash, mavjud muammolarni aniqlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari hududlarning real ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. Natijada investitsiya siyosatining manzilliligi va samaradorligi oshadi.

Umuman, kompleks baholash metodologiyasini hududiy investitsiya siyosatiga joriy etish investitsion resurslarni oqilona taqsimlash, xususiy va xorijiy kapitalni jalb etish, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun barqaror investitsion muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi yo'nalishi bo'yicha quyidagi takliflarni ilmiy ishning amaliy tavsiyalari sifatida kiritish mumkin:

hududiy investitsion jozibadorlikning yagona integral indeksini joriy etish. Hududlarni faqat investitsiyalar hajmi bo'yicha emas, balki iqtisodiy, moliyaviy, institutsional, infratuzilmaviy, ijtimoiy, ekologik va raqamli ko'rsatkichlar majmuasi asosida baholash maqsadga muvofiq.

ko'rsatkichlarni standartlashtirish va vaznlash tizimini takomillashtirish. Turli o'lchov





birliklariga ega indikatorlarni yagona shkala asosida standartlashtirish, indikatorlarning ahamiyatini esa ekspert baholash, AHP yoki statistik usullar orqali aniqlash hududlar reytingining obyektivligini oshiradi.

“dinamik investitsion jozibadorlik” yondashuvini qo‘llash. Hududning faqat ma’lum bir yildagi holatini emas, balki oxirgi 5–7 yildagi investitsiyalar o‘sish sur’ati, xorijiy kapital oqimi, yangi korxonalar tashkil etilishi va infratuzilma rivojlanishi dinamikasini hisobga olish lozim.

xorijiy investorlar uchun alohida indikatorlar blokini shakllantirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, investorlar uchun yaratilgan infratuzilma, maxsus iqtisodiy zonalar va investitsiya loyihalarining rentabelligi kabi ko‘rsatkichlarni alohida baholash tavsiya etiladi.

raqamli infratuzilmani baholash metodologiyasiga kiritish. Internetdan foydalanish darajasi, axborot-kommunikatsiya xizmatlari, elektron davlat xizmatlari va raqamli investitsiya platformalarining rivojlanganlik darajasi zamonaviy investitsion muhitning muhim komponenti sifatida hisobga olinishi kerak.

ESG indikatorlaridan foydalanish. Hududlarning ekologik barqarorligi, ijtimoiy rivojlanishi va boshqaruv sifati investitsion jozibadorlik indeksining alohida tarkibiy qismlariga aylantirilishi maqsadga muvofiq. Bu xalqaro investorlarning zamonaviy talablariga mos baholash tizimini shakllantiradi.

hududlarni investitsion salohiyatiga qarab guruhlash. Integral indeks natijalariga ko‘ra hududlarni “juda yuqori”, “yuqori”, “o‘rtacha”, “past” va “juda past” investitsion jozibadorlik guruhlariga ajratish hamda har bir guruh uchun individual investitsiya siyosatini ishlab chiqish lozim.

investitsion reytingni muntazam yangilab borish. Hududlar investitsion jozibadorligi reytingini yil yakunlari bo‘yicha muntazam e‘lon qilish investorlar uchun axborot shaffofligini oshiradi va hududiy hokimliklar o‘rtasida investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha sog‘lom raqobatni kuchaytiradi.

investorlar fikrini baholash tizimiga kiritish. Statistik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda amaldagi investorlarning hududdagi biznes yuritish sharoitlari, ma‘muriy tartib-taomillar, infratuzilma va davlat xizmatlaridan qoniqish darajasini so‘rovnomalar orqali aniqlash tavsiya etiladi.

“investitsion jozibadorlik – investitsiya natijadorligi” bog‘liqligini hisobga olish. Reyting faqat jalb qilingan investitsiyalar hajmini emas, balki investitsiyalar natijasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport, soliq tushumlari va hudud YaIMiga qo‘shilgan hissani ham qamrab olishi kerak.

Umumiy ilmiy-amaliy xulosa sifatida taklif etilayotgan metodologiya hududlarni oddiy statistik reytinglashdan ko‘p mezonli, dinamik va integral baholash tizimiga o‘tishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv investitsion muhitning real holatini aniqroq aks ettirib, har bir hudud uchun individual investitsiya siyosatini shakllantirish va mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. — Toshkent: Moliya, 2003.

Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. — Toshkent: Moliya, 2010.

Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh.J. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.

Xajibakiyev Sh.X. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsion muhitni takomillashtirish masalalari. — Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda investitsiyalar. — Toshkent, 2018–2025.





O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlar. — Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va investitsiya siyosatiga oid tahliliy materiallar. — Toshkent.

